

## YURAK VA QON TOMIR XASTALIKLARIDA QO'LLANILADIGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR

**Abduxalilova Madinaxon Abdurayim qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, biologiya  
yo'nalishi ikkinchi bosqich talabasi E-mail: madinaxonabduxalilova@mail.ru*

**Annotation:** Maqolada yurak qon tomir kasalliklarida qo'llaniladigan ayrim dorivor o'simliklarning biologik xususiyatlari shifobaxshligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Alkoloid, glikozid, lipid, flavonoid, kumarin, validol, stenokardiya.

**Абстрактный:** В статье говорится о лечебных свойствах некоторых лекарственных растений, применяемых при сердечно-сосудистых заболеваниях.

**Ключевые слова:** Алкалоид, гликозид, липид, флавоноид, кумарин, валидол, стенокардия.

**Abstract:** The article talks about the medicinal properties of some medicinal plants used in cardiovascular diseases.

**Keywords:** Alkaloid, glycoside, lipid, flavonoid, coumarin, validol, stenocardia.

Hozirgi kunda dorivor o'simliklarning yer yuzida 10-12 ming turi mavjud. O'zbekistonda 577 turi uchraydi, shulardan 250 turi ilmiy tabobatda ishlatalib kelmoqa. O'zbekistonda Akademik S.Yu.Yunusuv nomidagi o'simlik moddalari kimyosi institutining olimlari tomonidan markaziy Osiyoda o'sadigan 4000 dan orti o'simliklar tarkibida alkoloidlar borligi aniqlangan, ulardan 292 turini chuqur o'rganishi natijasida 1250 dan ortiq alkaloid ajratib olingan. Bundan tashqari 50 dan ortiq o'simliklarda glikozidlar, 160 xil o'simlikning glikozidkari 250 o'simlikdan lipidlar, 150dan ortiq o'simlik turidava flavonoidlar va kumarin asosida qator dorivor vositalar yaratildi va amaliy tibbiyotga tadbiq etildi.

So'ngi vaqtarda aholi sonining ortib borishi natijasida ularda uchraydigan kasalliklar soni va turi ham ortib bormoqda jumladan yurak xastaliklari ham shular jumlasidan hisoblanadi. Yurak xastaliklarda ilmiy tibbiyotda va xalq tabobatida arslonquyruq, bo'rigul, ko'k bo'tako'z, dorivor valeriana kabi o'simliklardan keng foydalilaniladi.

Dorivor valeriana - valerianadoshlar-valerianaceae oilasiga mansub, bo'yi 2 m gacha yetadigan ko'p yillik o't o'simlik.

Ildizpoyasidan birinchi yili ildizoldi to'pbarglari, ikkinchi yildan boshlab poyasi unib chiqadi. Poyasi tik o'sadi, shoxlanmagan yoki yuqori qismi shoxlangan. Barglari oddiy, 4 – 11 juft bo'lakchalardan iborat toq patli ajralgan bo'lib, poyada bandlari yordamida qarama – qarshi o'rashgan. Barg bo'lakchalari chiziqsimon, nishtarsimon yoki tuxumsimon, yirik tishsimon qirrali. Oq yoki pushti rangli gullari ro'vak to'pgulga o'rashgan. Mevasi cho'ziq tuxumsimon, och qo'ng'ir rangli pista hisoblanadi.



Valeriana O'rta Osiyodagi cho'llar va Sibirning Shimoliy qismidan tashqari hamma hududlardagi nam yerlarda, o'rmon yoqalarida, ariq bo'ylarida, butalar orasida va o'tloqlarda o'sadi.

Dorivor mahsulotlar valeriananing ildizpoyasi, ildizi va yerustki qismidan olinadi. Valeriana ildizi va ildizpoyasi tarkibida 0.5-2 % valepotriatlar, alkaloidlar, izovalerian, sirka, olma va boshqa kislotalar, saponinlar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Valeriananing dorivor preparatlari tabletka holida asab tizimini tinchlantiruvchi hamda yurak faoliyatini tartibga solish uchun qo'llaniladi. Nastoykasi kamfora – valerianali tomchilar va boshqa kompleks preparatlar tarkibiga, ildizpoyasi va ildizi tinchlantiruvchi va boshqa choylar – yig'malar, izovalerian kislotasining mentol bilan hosil qilgan efiri validol tarkibiga kiradi. Validol tinchlantiruvchi vosita sifatida ko'krak qisishini(stenokardiya) ni davolashda qo'llaniladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yurtimiz dorivor o'simlik turlariga nihoyatda boy. Mazkur olam vakili bo'lgan dorivor valerianadan bugungi kunda keng tarqalib borayogan kasallik hisoblangan yurak qon tomir xastaliklarida foydalanishimiz mumkin. Qolaversa ushbu o'simlik asab tizimini tinchlantirish xususiyatiga ega bo'lgan tengi yo'q vosita sifatida ham ahamiyatga ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

- [1]. M.A.Jo'rayeva. Dorivor o'simliklar atlasi. Toshkent. Noshir. 2019.
- [2]. Ahmedov O', Ergashev.A, Abzalov A. va boshqalar. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent. Tafakkur-bo'stoni.2018.
- [3]. A.Usmonxodjayev ,E.I Basitxonova O'zbekistonda o'sadigan shifobaxsh o'simliklarning etimologik zamonaviy ensklopediyasi. Toshkent-2018.